

**MUNDARIJA**

- I. Umumiy qoidalar
- II. Malaka oshirish shakli va muddati
- III. Malaka oshirishni tashkilatlashirish
- IV. Moliyalashtirish manbalari
- V. Nazorat va javobgarlik
- VI. Axborotni oshkor etish
- VII. Yakunlovchi qoidalar

**«Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyati  
mansabdor shaxslarining malakasini oshirish  
TARTIBI**

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur «Dehqonobod kaly zavodi» Aksiyadorlik jamiyatining mansabdor shaxslarini malakasini oshirish Tartibi (bundan buyon matnda Tartib deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi 4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv ustularini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (bundan buyon matnda Farmon deb yuritiladi), Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalari (Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishining 2015-yil 31-dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan), «Dehqonobod kaly zavodi» Aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon matnda Jamiyat deb yuritiladi) Ustavi va boshqa normativ hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.
2. Mazkur Tartib Jamiyat mansabdor shaxslarining malakasini oshirish tartibini belgilaydi.
3. Mazkur Tartib Jamiyat mansabdor shaxslarining nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish va yangilash, ularning kasbiy tayyorgarligini bajariladigan vazifa va funksiyalarga muvofiqligini ta'minlash, yuqori kasbiy salohiyatni qo'llab-quvvatlash va ularga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun ularning javobgarligini oshirish maqsadida ishlab chiqildi.
4. Mazkur Tartib Jamiyat mansabdor shaxslariga tatbiq qilinadi.

## II. MANSABDOR SHAXSLARNING MALAKASINI OSHIRISH SHAKLLARI VA MUDDATLARI

5. Doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahmiyatiga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs Jamiyatning mansabdor shaxsi hisoblanadi.
6. Quyidagilar Jamiyatning mansabdor shaxslari sirasiga kiradi:
  - a) Jamiyatning Boshqaruv raisi;
  - b) Jamiyatning Boshqaruv raisi o'rinbosarlari, bosh hisobchisi va uning o'rinbosarlari;
  - v) Jamiyatning yuristkonsulti;
  - g) Aksiyadorlar va korporativ munosabatlarni vakolatiga ega Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari;
  - j) Jamiyatning korporativ maslahatchisi;
  - z) Auditorlik sertifikatiga ega bo'lgan Jamiyatning ichki audit xizmati rahbari va xodimlari.Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga muvofiq Jamiyat aksiyalar qiymatining oshishiga olib keluvchi moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, mehnat unumdorligini, mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, eksport va energiya samaradorligining o'sishi, modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilashni strategik maqsad sifatida belgilaydi.
- Belgilab qo'yilgan maqsadlarga erishish Jamiyatning rahbari, ijroiya organi a'zolari va boshqa mansabdor shaxslarining kasbiy darajasini yuqori ko'tarish orqali ta'minlanadi.
7. Jamiyatning mansabdor shaxslarining malakasini oshirish majburiy hisoblanadi.
8. Jamiyatning mansabdor shaxslarining malakasini oshirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:
  - Malaka oshirish bo'yicha maxsus ta'lim muassasalari (o'quv markazlari, o'quv kurslarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish;
  - seminar, treninglarda ishtirok etish;Jamiyatning Boshqaruv raisi 5 yilda 1 marta kam bo'lmagan holda malaka oshirishlari shart.
- Jamiyatning Boshqaruv raisi malakasini oshirish Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim Markazida tegishli sertifikat olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9. Jamiyatning Boshqaruv raisi o'rinbosarlari 5 yilda 1 marta kam bo'lmagan holda malaka oshirishlari shart.

Jamiyatning Boshqaruv raisi o'rinbosarlarini malakasini oshirish Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim Markazida tegishli sertifikat olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10. Bosh hisobchi va uning o'rinbosarlari 3 yilda 1 marta kam bo'lmagan holda malaka oshirishlari shart.

Bosh hisobchisi va uning o'rinbosarlarini malakasini oshirish O'zbekiston buxgaltlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi qoshidagi o'quv kurslarida yoki boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalarda amalga oshiriladi.

11. Jamiyatning boshqa mansabdor shaxslari 3 yilda 1 marta kam bo'lmagan holda malaka oshirishlari zarur.

Jamiyatning boshqa mansabdor shaxslarining malakasini oshirish tegishli yo'nalishlar bo'yicha (korporativ boshqaruv, marketing, menejment, zamonaviy ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish) o'quv kurslarida amalga oshiriladi.

12. Jamiyatning yuristkonsulti har 5 yilda 1 marta kam bo'lmagan holda malaka oshirishi shart.

Jamiyatning yuristkonsulti malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi yuristlar malakasini oshirish Markazida amalga oshiriladi.

13. Aksiyadorlar va investorlar bilan korporativ munosabatlarni qo'llab-quvvatlash vakolatiga ega Jamiyatning tarkibiy bo'limlari (Korporativ munosabatlari bo'limi) xodimlari korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha mutaxassis malakaviy attestatiga ega bo'lishi hamda har 3 yilda 1 marta kam bo'lmagan holda malaka oshirishlari shart.

Aksiyadorlar va investorlar bilan korporativ munosabatlarni qo'llab-quvvatlash vakolatiga ega Jamiyatning Korporativ munosabatlari bo'limi xodimlarining malakasini oshirish Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim Markazida va qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha mutaxassislarining malakasini oshiruvchi va qayta tayyorlovchi tashkilotlarda amalga oshiriladi.

14. Jamiyatning korporativ maslahatchisi korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha mutaxassis malakaviy attestatiga ega bo'lishi va har 3 yilda 1 marta kam bo'lmagan holda malaka oshirishlari shart.

Jamiyatning korporativ maslahatchisining malakasini oshirish Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim Markazida va qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha mutaxassislarining malakasini oshiruvchi va qayta tayyorlovchi tashkilotlarda amalga oshiriladi.

15. Ichki auditor sertifikatiga ega bo'lgan ichki audit xizmati rahbari va xodimlari sertifikat olingan yildan keyingi yildan boshlab har yili malaka oshirish kurslaridan o'tishi shart. Ichki audit xizmati rahbari va xodimlarining malakasini oshirish auditorlarning jamoat birlashmalari qoshidagi auditorlarni tayyorlash Markazida, auditorlarni o'qitish va malakasini oshirish litsenziyasiga ega ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

16. Ta'lim muassasalari tomonidan berilgan sertifikat, guvohnoma va belgilangan na'munadagi boshqa hujjatlar Jamiyatning mansabdor shaxslarining malakasini oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

17. Tegishli yo'nalishlar bo'yicha turli xil seminar, treninglarda, shu bilan birgalikda qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazi va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa ishtirokchilari tomonidan o'tkaziladigan seminarlarda ishtirok etish, shuningdek, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish Jamiyatning mansabdor shaxslarining malakasini oshirishning qo'shimcha shakli hisoblanadi.

## III. MALAKA OSHIRISHNI TASHKIL QILISH

18. Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiq Jamiyat mansabdor shaxslarining malaka oshirish kurslarini o'tishini ta'minlashga majbur.

19. Jamiyatning kadrlar siyosatini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan Jamiyatning tarkibiy bo'limlari – Kadrlar boshqarmasi (Kadrlar bo'limi va h.k.) Jamiyat mansabdor shaxslarining malakasini oshirishni tashkilloshtrish bilan shug'ullanadi.

20. Kadrlar boshqarmasi belgilangan muddatlarda malaka oshirishi shart bo'lgan mansabdor shaxslarning hisobini yuritadi va mansabdor shaxslar tomonidan malaka oshirish kurslarini o'z vaqtida o'tishini nazorat qiladi.

21. Mazkur Tartibga muvofiq Kadrlar boshqarmasi har yili Jamiyatning ijroiya organi rahbarining qarori bilan tasdiqlanadigan Rejani ishlab chiqadi.

22. Jamiyatning mansabdor shaxslarini malakasini oshirish mazkur Tartibga muvofiq va tasdiqlangan Rejaga asosan amalga oshiriladi.

23. Mansabdor shaxslarning malakasini oshirish ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ish maoshi saqlangan tarzda amalga oshiriladi.

24. Malaka oshirish to'g'risidagi tegishli hujjat (sertifikat, guvohnoma)ning amal qilish muddati tugashiga 2 oy qolguniga qadar Kadrlar boshqarmasi rahbari mansabdor shaxs qo'shimcha ta'lim olishining ishlab chiqarish zaruriyatini asoslab mansabdor shaxsni malaka oshirishga yuborish haqida Jamiyatning ijroiya organi rahbariga taklif kiritiladi.

25. Jamiyatning ijroiya organi rahbari Jamiyatning mansabdor shaxsini malaka oshirish kursiga yuborish to'g'risidagi buyruqni qabul qiladi.

26. Jamiyatning mansabdor shaxsi Jamiyatning ijroiya organi rahbarining buyrug'i asosida malaka oshirishga yuboriladi.

27. Jamiyat tegishli ta'lim muassasasi bilan shartnoma tuzadi.

28. Malaka oshirgan Jamiyatning mansabdor shaxslari Kadrlar boshqarmasiga malaka oshirish kursini o'tganligini tasdiqlovchi hujjat (sertifikat, guvohnoma yoki belgilangan na'munadagi boshqa hujjat)ni taqdim etadi.

29. Ish davomida malaka oshirishni taqozo etgan mansabga kirishgan mansabdor shaxs malaka oshirishdan o'tish to'g'risidagi yozma majburiyatini imzolaydi. Malaka oshirish va boshqa kurslar o'tilmagan yoki rad etilgan holatda Jamiyatning ijroiya organi rahbari mehnat shartnomasini bekor qilishi mumkin.

30. Ijroiya organining rahbari tomonidan malaka oshirish o'tilmagan Jamiyat Kuzatuv kengashi unga tegishli tartibda javobgarlik choralarini qo'llashga haqli.

31. Jamiyatning Kuzatuv kengashi malaka oshirishni o'tgan korporativ maslahatchi, ichki audit xizmati xodimlari va Jamiyat boshqaruv a'zolariga nisbatan mehnat shartnomalarni uzaytirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

32. Malaka oshirishni o'tmagan korporativ maslahatchi, ichki audit xizmati xodimlari va Jamiyat boshqaruv a'zolariga nisbatan Jamiyatning Kuzatuv kengashi javobgarlik choralarini qo'llash, bajarayotgan mansab majburiyatidan vaqtincha ozod qilish yoki qonunda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

33. Malaka oshirishni o'tmagan Jamiyatning boshqa mansabdor shaxslariga nisbatan ijroiya organi rahbari javobgarlik choralarini qo'llash, bajarayotgan mansab majburiyatidan vaqtincha ozod qilish yoki qonunda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

#### IV. MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

34. Jamiyatning mansabdor shaxslarining malaka oshirish xarajatlari Jamiyat mablag'larini hisobidan amalga oshiriladi.

35. Mansabdor shaxslarning malaka oshirishiga yo'naltirilgan mablag'lar Jamiyatning yillik Biznes-rejasining xarajat qismiga qo'shildi.

#### V. NAZORAT VA JAVOBGARLIK

36. Jamiyatning mansabdor shaxslarining o'z vaqtida malaka oshirishiga ijroiya organi rahbari javobgar hisoblanadi.

37. Mazkur Tartib talablarining bajarilishi ustidan nazorat qilish Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

38. Mazkur Tartibni buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

#### VI. AXBOROTNI OSHKOR ETISH

39. Jamiyat korporativ veb-saytida quyidagi axborotni joylashtiradi:

- Mazkur Tartib, shuningdek unga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, tegishli qaror qabul qilingan Kuzatuv kengashi bayonomasining imzolangan keyingi 5 (besh) ish kunida;

- Tasdiqlangan reja asosida malaka oshirgan Jamiyatning ijroiya organi rahbari va a'zolari va boshqa mansabdor shaxslari to'g'risida ma'lumot;

- Jamiyatning mansabdor shaxslari ishtirok etgan seminar, trening va boshqa ta'lim tadbirlari to'g'risida ma'lumot.

#### VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

40. Mazkur Tartib Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

Mazkur Tartibni tasdiqlash bo'yicha kuzatuv kengashining qarori majlisda ishtirok etgan Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki Kuzatuv kengashining majlisi sirtidan o'tkazilganda Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

41. Qonunchilikka o'zgartirish kiritilishi, Jamiyatning Ustavi, ichki hujjatlariga o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritilishi va boshqa holatlarda mazkur Tartibga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash bo'yicha kuzatuv kengashining qarori majlisda ishtirok etgan Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki kuzatuv kengashining majlisi sirtidan o'tkazilganda Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

42. Agar mazkur Tartibning alohida moddalarida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid bo'lsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va mazkur Tartibga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar bu moddalar bilan tartibga solinuvchi masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari va/yoki Jamiyat Ustaviga amal qilinishi lozim.